

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING JISMONIY, AQLIY VA MA'NAVIY  
KAMOLOTIDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI**

Muqimova Dilshoda To'ymurodovna

Buxoro viloyati Peshku tumanidagi 17- DMTT metodisti

**Annotatsiya**

Maqolada maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotida badiiy adabiyotning o'rnini haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bunda bolalarning intellektual qobiliyati, dunyoqarashi va aqliy salohiyatini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi. Kichik, o'rta, katta, tayyorlov guruhlari uchun badiiy adabiyot o'rini foydalanish. Badiiy adabiyot mashg'ulotidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad - Bolalar qalbida kitobga nisbatan havas tuyg'usini shakllantirish kitobsevar va kitobxonlik madaniyatini oshirishdan iboratligi aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha, yoshdagi, bolalar, rivojlantirish, ta'lim, tarbiya, ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, kichik, o'rta, katta, tarbiyachi, mehnatsevar, dunyoqarash, do'st, O'zbekiston, Vatan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Bolalarning tarbiyaga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma-xil bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniyalar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotida badiiy adabiyotning o'rnini beqiyosdir. Bizga ma'lumki «Ilk qadam» dasturi bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotining namunaviy o'quv rejasida «Badiiy adabiyot» faoliyat turi barcha guruhlari uchun o'rin olgan. Bolalarning intellektual qobiliyati, dunyoqarashi va aqliy salohiyatini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Kichik, o'rta, katta, tayyorlov guruhlari uchun haftada bir marta badiiy adabiyot o'tiladi. Badiiy adabiyot mashg'ulotidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad - Bolalar qalbida kitobga nisbatan havas tuyg'usini shakllantirish kitobsevar va kitobxonlik madaniyatini oshirishdan iborat. Zero har bir bolaning shaxsiy kamolotida, jismonan sog'lom, aqlan yetuk, teran va ma'nan barkamol qilib tarbiyalashda kitobning o'rnini beqiyosdir. Ularning vatan oldidagi burchini tushunishida, go'zallikni his qilishida, yaxshi va yomonni farqlay olishida badiiy kitobning ahamiyati katta. Barcha guruhlarda tashkil etiladigan badiiy adabiyot mashg'ulotlarida xususan mashg'ulotning asosiy qismida, yakuniy qismida, suhbat-munozaralarda qiziqarlilik, ijodkorlik, faollik asosiy mezon bo'lishi lozim. Bu bolaning o'rganishga, bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, tafakkur va tasavvur doirasini kengaytiradi, mantiqiy fikrlash, aqliy salohiyatini oshirishda, ma'naviy-axloqiy sifatlarni kamol toptirishda xizmat qiladi.

Mashg'ulotning asosiy qismida ya'n faoliyat boshlanmasida tarbiyachi tomonidan bevosita badiiy asar so'zlab yoki o'qib beriladi. Badiiy asar qaysi janrga mansub ekanligi, qaysi xalq ertagi ekanligi, ertak

yoki hikoya bo'lsa uning muallifini nomini va sarlavhasini aytib o'tadi. Asarni o'qib yoki so'zlab bergandan so'ng, bolalarga qanchalik yoqqanligi bilan qiziqadi. Ularda asarni qayta eshitish istagi bormi yoki yoqmi shu haqida so'rash ham muhim. Ertak yoki hikoya maqsadga yo'naltirilgan holda bolalarning yoshiga, dunyoqarashiga mos tarzda sodda va ayni paytda qiziqarli, o'z o'rnida ko'rgazmali va harakatli o'yinlar bilan boyitilsa, yoki asar rolgga kirib ijro etilsa, bolalarda badiiy asarni jon qulog'i bilan eshitish ishtiyoqi paydo bo'lib shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyati davomida badiiy adabiyotdan «Til va nutq», «Syujedli - rolli drammalashtirish» markazlaridan foydalanamiz. Til va nutq markazida quyidagicha faoliyat olib borishimiz mumkin:

**Tarbiyachi:** Hozir men sizlarga A. Obidjonning «Do'stlik» haqidagi ertagini o'qib beraman. Bir bor ekan bir yo'q ekan, qadim o'tgan zamonda emas, balki yaqinda bir o'rmonda olmaxon va kakku yaqin do'st bo'lib kun kechirar ekan. Olmaxon mehnatsevar, aqlli, tinib-tinchimas ekan. Ertalabdan kechga qadar tinmay mehnat qilib, yemish, ovqat qidirib o'z bolalarini boqish uchun o'z iniga ya'ni daraxt kovagiga topganlarini tashir ekan. Kakku ishyoqmas, dangasa, tayyorga ayyor ekan. U har kuni olmaxonning topgan yemishlaridan yeb kun o'tkazar ekan. Olmaxon ham saxiylik qilib kakkuga topgan narsalaridan birib turar ekan. Ola qol do'stim kakku mana bu narsalardan sen ham etib bolalaringga yedir der ekan. Kunlardan bir kun daraxtdan-daraxtga sakrab yurgan olmaxon lo'p etib shalloplab suvga, botqoqlikka tushib ketibdi. Shunda olmaxon do'sti kakkuni yordamga chaqira boshlabdi. Do'stim kakku menga yordam ber, men botqoqlikka botib ketyapman iltimos deb chaqiribdi. Shunda kakku esa unga: Voy do'stim olmaxon biram epchilsanee, biram chaqqonsanee, senga aytgandimu ko'p ishlamagin deb – debdiyu, hech qanday yordam bermasdan bir chekkada faqat achinish bilan qarab turaveribdi. Bu holatni bir chekkada kuzatib turgan laylakvoy darrov voqea joyiga yetib kelibdida, kakkuga qarata shunday debdi; Do'stlar hamisha bir-birlariga yordam berishlari kerak. Do'st faqat yaxshi kunida emas, Balki do'stining yomon kunida ham yordam beradigan, qiyin va og'ir damlarida yordam berishi kerak. Shundagina ular haqiqiy do'st sanaladi. Laylakvoyning bu gaplarini eshitgan kakku o'z ishidan afsuslanibdi va o'ziga tegishli xulosa chiqaribdi.

**Suhbat-munozara.** Ana ko'rdingizmi bolajonlar, do'stlar hamisha bir-birlariga yordam berishlari kerak. Mashg'ulot so'ngida bolalarning asar voqeasiga yaqin mavzudagi hikoyalarini tinglash ham samarali usullardan hisoblanadi. Asar qahramonlarining so'zlarini rollarga bo'lib aytish, asarni sahnalashtirish ham maroqli. tarbiyachi sahnalashtirishda kerak bo'ladigan ayrim jihozlarni bolalar bilan birgalikda tayyorlasa, bu shubhasiz bolalar qalbida zavq-shavq bag'ishlaydi, ularni faollashtiradi. Rol o'ynayotganlarida bolalar asarni yanada chuqurroq tushunadilar, qahramonlarning ruhiy holatlarini boshlaridan kechiradilar, natijada ularga obrazlarga nisbatan mustaqil munosabat tarkib topadi. Tarbiyachilar badiiy adabiyot mashg'ulotlari samaradorligini oshirishga xizmat etuvchi ko'pgina omillarga e'tabor qaratishi kerak.

1. Badiiy asarni puxta o'qib, uning mag'ziga singdirilgan asosiy maqsadni aniqlash;
2. Asar orqali bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni kamol toptirish;
3. Asar qaysi jihatlari bilan bolani fikrlashga undamoqda;
4. Asar qahramonlarining xulq-atvorini, o'zaro suhbatini tahlil etish;
5. Asar qahramonlari va voqealari asosida mantiqiy savollar tuzish;
6. Asar g'oyasini ochishga xizmat qiluvchi she'r, maqol, hikmatli so'zlardan foydalanish;

7. Badiiy asar bo'yicha suhbat-munozara tashkil etish;

8. Bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'zlashtirish usullarini izlash.

Guruhdagi har bir bolaga e'tibor berib, qalbiga quloq tutish, ular tomonidan aytilayotgan javoblarni, bildirilayotgan fikrlarni diqqat bilan tinglash, oqilona munosabatda bo'lish, bolani samimiyat bilan qo'llab-quvvatlab borish qisqasi bolani shaxs sifatida hurmat qilish juda muhimdir. Xalqimizda «Daraxtdan meva olaman desang, niholligida parvarish qil» degan ajoyib g'oya bor. Tabiiyki daraxt niholligidan parvarish qilinmasa, u yovvoyilashib, g'ovlab ketadi. Demak har bir ish o'z vaqtida bajarilsa kutilgan natijaga erishamiz. Bolalar olamini badiiy kitobsiz tasavvur etish qiyin. Badiiy kitoblar bolaning ilk yoshidan boshlab qalbiga ezgulik urug'larini sochadi. Unga yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, odob va odobsizlik haqida dastlabki tushunchalarni beradi. Bolaning ma'naviy salohiyatini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, badiiy estetik didini o'zlashtiradi, nutqini rivojlantiradi, yuksak insoniylik ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muntazam ravishda badiiy asarlar xususan, xalq ertaklari, dostonlar, afsonalar, rivoyatlar, adabiy ertaklar, hikoyalar o'qib va so'zlab beriladi. She'rlar ifodali o'qiladi va yodlatiladi. O'zbek xalq ijodi namunalari alla, erkalama, ovutmachiq, aytim - olqishlar, shuningdek shoirlar tomonidan yozilgan alla qo'shiqlaridan foydalanish mumkin.

O'rta guruhlar Zafar Diyorning quyidagi alla qo'shig'ini ifodali o'qib bergach bolalar bilan suhbat-munozara o'tkaziladi.

Kunduzim desam ham oz, yulduzim desam ham oz.

Dunyoda nima go'zal, bo'lsa undan o'zing soz.

Asalmisan, qandmisan, g'azal muhabbatmisan.

Muncha shirinsan o'zing, jonimga payvandmisan.

Uxla yulduzim alla, oyni olib beraymi.

Gullar terib kelaymi, atrofingda o'rgilib.

Shamol bo'lib yelaymi, uxla gulyuzim alla.

Yuqoridagi allani o'qib eshittirgach bolalardan allaga nisbatan o'z munosabatlarini so'rab fikrlarini tinglaymiz. Onaning bolasiga nisbatan mehr - muhabbatini, uning uchun butun borlig'ini fido etishi qo'shiq mazmunida o'z aksini topgan. Bunda onaga hurmat, muhabbatli bo'lish hissi shakllanadi. Tayyorlov guruhida sentyabr oyi mavzusi «O'zbekiston –mening Vatanim» mavzusi orqali bolalarda Muqimjon Qodirovning «Talpinaman quyoshga» she'rini yod oldirish

**Maqsad:** Bolalarni stili she'riy asarlarga qiziqtirish, zavqlanish tuyg'usini o'zlashtirish, ularning e'tiborini badiiy tasvir vositalariga qaratish, so'z boyligini oshirishdan iborat. Bolalar qalbida o'zlari tug'ilib o'sgan Ona-Vatanga mehr-muhabbat, faxr va iftixor tuyg'ularini orttirish, tasavvur doiralarini kengaytirish, she'rni ko'tarinki ruhda aytishni o'rgatish.

Ona Vatan bag'rida, ulg'ayaman baxtiyor.

Muncha suluv bepoyon, O'zbekiston gul diyor.

Sirdosh bo'lgim keladi, har giyohga har toshga.

Zamin mehriga qonib, talpinaman quyoshga.

Tarbiyachi she'rni bolalar istaklariga qarab yana bir marta o'qib berishi mumkin. Aziz bolajonlar, biz tug'ilib o'sgan aziz Vatanimizni nihoyatda yaxshi ko'ramiz. Shuning uchun ham uni Ona –Vatan deymiz. Chunki Vatanimiz bizga onamizdek qadrdon va aziz. Dunyoda har bir insonda faqat bitta Ona bo'ladi.

Vatan ham xuddi Onadek bitta, yagona bo'ladi. Bizning sevimli Ona-Vatanimiz O'zbekiston! Kelinglar birgalikda aytaramiz. Ona-Vatanimiz - O'ZBEKISTON!

Badiiy adabiyot faoliyatini o'tish jarayonida asarlarda aks ettirilayotgan ma'naviy-axloqiy, badiiy-estetik tomonlarni bolalar ongi va qalbiga to'liq yetib borishi ko'p jihatdan tarbiyachining badiiy o'qish va hikoya qilish mahoratini qay darajada egallaganligiga bog'liq. Tarbiyachi xalq ertaklari, adabiy ertaklar yoki hikoyalarda ifodali o'qish qoidalariga amal qilib, to'xtamlarga, ovoz ohangi orqali obraz yaratishga rioya etib, bayon etilayotgan voqealarni, yozuvchining aytmoqchi bo'lgan niyatini to'liq anglab, ezgu fazilatlarining go'zalligini, yaxshilikning g'alabasini kichkintoylarga ta'sirli yetkaza olsa mashg'ulot samaradorligi oshadi. Yomon xulq –atvorlarga yomonlikka bo'lgan munosobatni ovoz orqali alohida ta'kidlab, maroqli tarzda so'zlab yoki o'qib bersa nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Shuning uchun maroq bilan badiiy asar tinglayotgan bola qattiq ta'sirlanadi, hayajonlanadi, asar uni ma'naviy-ruhiy jihatdan tarbiyalaydi. Boladagi ana shu ilk taa'ssurotni parchalab yubormaslik uchun, tarbiyachi asarni o'qib yoki so'zlab berishi bilanoq darhol turli savollar bilan ularga murojaat qilishi kerak emas. Bolani asar yoki hikoya voqealari, qahramonlar xulq-atvori haqida o'ylab, mulohaza yuritishga imkon berish kerak. Bu usullar mashg'ulot mazmundorligini oshirishga xizmat qiladi. Bolaning aqlini, idrokini, zehni o'stiradi. Xulosa: Demak, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida rivojlanish xususiyatlari juda ko'p va ahamiyatli. Bolaning rivojlanishida qanday rivojlanayotganligi yoshiga yarasha vazni, bo'yi, psixologik xarakteri, qobilyati, tashqaridagi ma'lumotlari qay darajada qabul qilishi, nuqtaning o'sishi, so'z boyli bularning hammasi juda katta ahamiyat kasb etadi. Bola tug'ilganidan to maktabgacha ta'lim yoshiga yetguniga qadar har tomonlama me'yor jihatidan rivojlanishi kuzatuv ostida bo'lishi lozim. Chunki, har tomonlama sog'lom bola davlatimiz kelajagi demakdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Bolajon tayanch dasturi. – T., 2010. – B.5.
2. <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr.
3. <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2018 yil 21 sentabr.
4. Mirziyoyev Sh.M. "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.// "Xalq so'zi" gazetasi 2018 yil 8 dekabr.
5. Raxmonov, R. R., Rayimov, A. R., Torayev, M. M., & Sharifova, S. S. Q. (2022). RAMSAR ROYXATIGA KIRITILGAN SUV BOTQOQLIK HUDUDLARINING BIOXILMA-XILLIKNI SAQLASHDAGI O'RNI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(6), 10-22.
6. Рахимов, Ж. Р., Хусенов, Б. Қ. Ў., Ғаниева, М. О., & Ҳайитова, Ш. Ж. (2022). ЗАРАФШОН ДАРЁСИ ҚЎЙИ ОҚИМИ БАЛИҚЛАРИ БИОЛОГИЯСИ, ЭКОЛОГИЯСИ ВА АҲАМИЯТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 928-943.
7. Raimov, A. R., & Rakhmonov, R. R. (2019). Distribution and number of Common myna *Acridotheres tristis* (Linnaeus, 1766) in different habitats of the Kuzylkum region. Природа Внутренней Азии. Nature of Inner Asia, (2), 60-64.
8. Rakhimovich, R. R., & Rustamovich, R. A. (2019). Structure and distribution of animals in the Bukhara

region. European science review, 2(1-2), 34-36.

9. Rayimov, A. R., & Rakhmonov, R. R. (2019). The role of Acridotheres Tristis in Biotic Connection. International Journal of Virology and Molecular Biology, 8(1), 1-3.

10. Rayimov, A. R., & Rakhmonov, R. R. (2019). The distribution and number of Acridotherestrictis in different habitats in the Kyzylkum. Nature of inner asia, 2(11), 60-64.

11. Rakhmonov, R. R., & Rayimov, A. R. (2019). Ecological positions of hunting species in Bukhara region. International Journal of Genetic Engineering, 7(1), 15-18.

12. Akmalovna, A. C. (2022). SOG'LOM AVLOD QOLDIRISH-BUYUK KELAJAK POYDEVORI. Uzbek Scholar Journal, 5, 177-181.

13. Aminjonova, C. A. (2022). Sog'lom ona va bola-baxtli kelajak asosi. Scientific progress, 3(1), 874-880.

14. Akmalovna, A. C. (2022, March). BIOLOGICAL PROPERTIES OF SOYBEAN. In E Conference Zone (pp. 90-94).

15. Rakhmonov, R. R., & Raimov, A. R. (2019). STRUCTURE AND DISTRIBUTION OF HUNTING ANIMALS IN BUKHARA. Природа Внутренней Азии. Nature of Inner Asia, (2), 65-68.

16. Rayimov, A., Rakhmonov, R., Nuriddinova, G., & Sanoqulov, R. (2021). BUKHARA REGION AND ITS RELATED TERRITORIES'SPECIES OF REPTILES PART AND NUMBERS'IN SPRING (AYOKOGITMA, KANDIM, AYOKGUJRUMLI, KIZILKUM STATE NATURE RESERVE). Universum: химия и биология, (5-2), 62-65.

17. Avaz, R., Rashid, R., Gulroy, N., & Ramizjon, S. (2021). BUKHARA REGION AND ITS RELATED TERRITORIES'SPECIES OF REPTILES PART AND NUMBERS'IN SPRING (AYOKOGITMA, KANDIM, AYOKGUJRUMLI, KIZILKUM STATE NATURE RESERVE). Universum: химия и биология, (5-2 (83)), 62-65.

18. Akmalovna, A. C., & Ismatovna, B. B. (2022). YURAK XASTALIKLARIDA QO'LLANILADIGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR. Uzbek Scholar Journal, 10, 309-314.

19. Aminjonova, C. A. (2021). METHODOLOGY AND PROBLEMS OF TEACHING THE SUBJECT "BIOLOGY" IN MEDICAL UNIVERSITIES. Смоленский медицинский альманах, (1), 15-18.

20. AMINJONOVA, C. (2021). PROBLEMS AND METHODS OF TEACHING THE SUBJECT "BIOLOGY". ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 1(1).

21. Aminjonovich, A. A., & Akmalovna, A. C. (2021, March). METHODS OF TEACHING THE SUBJECT "BIOLOGY" IN MEDICAL UNIVERSITIES. In Euro-Asia Conferences (Vol. 3, No. 1, pp. 38-40).

22. Ergashovich, K. A., & Akmalovna, A. C. (2022). Soybean Cultivation Technology and Basics of Land Preparation for Planting. Eurasian Journal of Research, Development and Innovation, 7, 8-13.

23. Akmalovna, A. C., & Olimovna, A. G. (2020). METHODOLOGY AND PROBLEMS OF TEACHING THE SUBJECT" BIOLOGY" IN MEDICAL UNIVERSITIES AND SECONDARY EDUCATIONAL SCHOOLS. Eurasian Medical Journal, (2), 6-8.

24. Kholboev, F. R., Rakhmonov, R. R., & Rayimov, A. R. (2019). The role of adaptive reactions of starling synantropization. In Региональные проблемы экологии и охраны животного мира (pp. 167-169).

25. Rustamovich, R. A., & Rakhimovich, R. R. (2019). The distribution and number of Acridotheres tristis in different habitats in the Kyzylkum region. European science review, 2(1-2), 37-39.

26. Rakhmonov, R. R., Naimovich, Z. A., & Khudoikulova, N. I. (2021). Possibilities of Introduction of Hunting Tourism in Hunting Farms of Bukhara Region. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 24(1), 253-256.



27. Rustamovich, R. A., Rakhimovich, R. R., Gulroy, N., & Ramizjon, S. (2021). Around territories of dengizkul, kora-kir and zamonbobo lakes' species of reptiles part and numbers' in spring. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 800-804.
28. Асроров, А. А., & Аминжонова, Ч. А. (2021). Оценка Состояния Когнитивных Нарушений У Пациентов Перенесших Инсульт В Практике Семейного Врача. *Central Asian journal of medical and natural sciences*, 397-401.
29. Asrorov, A. A. (2022). THE MOST IMPORTANT FACTORS IN THE ORGANIZATION OF PHYSICALLY FIT MEDICAL GROUPS. *Scientific progress*, 3(2), 1132-1138.
30. Aminjonova, C. A. (2022). TALABALAR O'QUV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM INNOVATSIYALARIDAN VA METODLARIDAN FOYDALANISH. *Scientific progress*, 3(3), 447-453.
31. Асроров, А. А., & Аминжонова, Ч. А. (2021). ОИЛАВИЙ ШИФОКОР АМАЛИЁТИДА ИНСУЛЬТ ЎТКАЗГАН БЕМОРЛАРДА КОГНИТИВ БУЗИЛИШЛАР ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ. *ЖУРНАЛ НЕВРОЛОГИИ И НЕЙРОХИРУРГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ*, (SPECIAL 1).
32. Hayitov, I. Y., Sharopova, M. A., & Rakhimovich, R. R. (2022). Biology and Healing Properties of Pirus Communis L. Types Introduced at Kashkadarya Scientific Experimental Station. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES*, 3(3), 170-176.
33. Rustamovich, R. A., Rakhimovich, R. R., & Kenjayevana, N. H. (2021). Taxonomic Analysis of Hunting Milk Markers in Uzbekistan. *Middle European Scientific Bulletin*, 13.
34. Amanovna, S. M., Rakhmonov, R. R., & Naimovich, Z. A. (2021). Lagerstroemia indica l. high potential medicinal plant in introduction conditions of kashkadarya. *Middle European Scientific Bulletin*, 8.
35. BUKHARA, I. (2019). STRUCTURE AND DISTRIBUTION OF HUNTING ANIMALS. *Nature*, (2), 65-68.
36. Asrorov, A. A. (2022). Yangi, sog'lom va buyuk ma'rifatli jamiyatni yaratishda yoshlarning o'rni. *Scientific progress*, 3(1), 868-873.
37. Асроров, А. А. (2022). МАМЛАКАТИМИЗ ФАРМАЦЕВТИКА СОҲАСИ УЧУН ЯНА БИР РИВОЖЛАНИШ ДАВРИ БОШЛАНДИ. *Scientific progress*, 3(3), 725-730.
38. Асроров, А. А., Юлдашева, Р. У., Халилова, Ф. А., Ашурова, Н. Г., Адизова, Д. Р., & Джураева, Н. О. (2020). Dermatoglyphic indexes of hand fingers at children with chronic tonsillitis. *Новый день в медицине*, (1), 136-139.
39. HUNTING, T. D. O., & REGION, A. I. B. (2020). RR Rakhmonov, PhD, Bukhara State Medical Institute, Bukhara OI Jabborova, PhD, Bukhara State Medical Institute, Bukhara MM Turawev, PhD, Bukhara State University, Bukhara. ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ, 9.
40. Avaz, R., Rashid, R., Hikoyat, N., & Moxinur, R. (2021). DATA ON THE DISTRIBUTION AND ECOLOGY OF SANDSTONE LEPUS CAPENSIS IN BUKHARA REGION. *Universum: химия и биология*, (7-2 (85)), 4-8.
41. Shukurova, I. B., Rakhmonov, R. R., Ganieva, M. A., & Hayitova, S. (2022). "ЖАЙРОН" ЭКОЛОГИК МАРКАЗИДАГИ ҲАЙВОНЛАР БИОЛОГИЯСИ ЭКОЛОГИЯСИ ВА УЛАРНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШДАГИ ЎРНИ. *Miasto Przyszłości*, 24, 312-317.
42. Аминжонова, Ч. А., & Мавлянова, Д. А. (2020). МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА "БИОЛОГИЯ" В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. In *МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ПСИХОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ* (pp. 8-11).
43. Aminjonovich, A. A. (2022). A Healthy Mother and Child is the Key to a Happy Future. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(8), 63-66.

44. Aminjonovich, A. A. (2022). TREATMENT AND DIAGNOSTIC METHODS OF PNEUMONIA IN CHILDREN OF UZBEKISTAN. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 560-566.
45. Рахимов, Ж. Р., Рахмонов, Р. Р., Райимов, А. Р., & Бакаева, Ш. Б. (2022). БУХОРО ВИЛОЯТИ СУВ ҲАВЗАЛАРИДА ИНТРОДУКЦИЯ ҚИЛИНГАН ЎТХЎР БАЛИҚЛАРНИНГ БИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(6), 23-28.
46. Kholboev, F. R., Rakhmonov, R. R., & Raimov, A. R. (2019). EVALUATION OF THE INFLUENCE OF ANTHROPOGENIC FACTORS ON THE TYPES OF ANIMALS IN BUKHARA REGION. In Региональные проблемы экологии и охраны животного мира (pp. 214-216).
47. Akmalovna, A. S. (2022). TALABALARDA TABIIY-ILMIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 109-117.
48. Рахмонов, Р. Р. (2022). БУХОРО ВИЛОЯТИДАГИ ОВЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИ ҲАҚИДА ЯНГИ МАЪЛУМОТЛАР. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(9), 169-176.
49. Рахмонов, Р. Р., Юсупова, С. Ж., Зарипова, З. Н., & Абдурахимова, А. А. (2022). БУХОРО ВИЛОЯТИ СУВ ҲАВЗАЛАРИДАГИ ЙИРТҚИЧ БАЛИҚЛАРИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 71-82.
50. Рахмонов, Р. Р., Исломова, Ф. М., Кайимова, Р. У., & Коннов, И. Е. (2022). Биология, Экология И Распространение Кабана. Research Journal of Trauma and Disability Studies, 1(10), 49-61.
51. Рахмонов, Р. Р. (2022). Бухоро вилоятидаги овчилик хўжаликлари ҳақида янги маълумотлар. Science and Education, 3(10), 68-76.
52. Rashit, R., Avaz, R., Lobar, K., & Moxinur, R. (2021). Species composition and distribution of birds in the ornithofauna of Uzbekistan. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 435-440.